

## **TALABALARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Usmonova Oydin Sherali qizi**

BuxDuPI Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi II-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, keng yoritilgan bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalanishning usullari ko‘rsatib o‘tilgan va shu bilan birgalikda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol metodlar ularning turlari, qo‘llanilishi, ta’lim natijaviyligiga erishishdagi o‘rni, o‘qituvchi qaysi omillarga tayanib, ulardan dars mashg‘ulotida foydalanishi kerakligi haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Interfaol metodlar, innovatsiya, ta’lim samaradorligi, faoliyat, an’anaviy dars, Assesment texnologiyasi, idrok xarita, klaster, kompitensiya, aqliy hujum, refleksiya, assotsiativ fikr, kreativlik.

**Аннотация:** В данной статье широко освещено значение инновационных педагогических технологий, показаны способы их правильного использования, а вместе с этим и интерактивные методы, применяемые в образовательном процессе, их виды, применение, обучение, подробно объясняется, какие факторы учитель должен опираться и использовать на уроке.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, инновации, эффективность обучения, деятельность, традиционный урок, технология оценивания, карта восприятия, кластер, компетентность, мозговой штурм, размышление, ассоциативное мышление, креативность.

**Abstract:** In this article, the importance of innovative pedagogical technologies is widely covered, the methods of their correct use are shown, and together with this, the interactive methods used in the educational process, their types, applications, education it is explained in detail what factors the teacher should rely on and use in the lesson.

**Keywords:** Interactive methods, innovation, educational effectiveness, activity, traditional lesson, Assessment technology, perception map, cluster, competence, brainstorming, reflection, associative thought, creativity.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida turli innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanishga bo'lgan qiziqish kundan –kunga ortmoqda. An'anaviy ta'limda talabalar bilimlarni tayyor holda o'rghanishsa, zamonaviy texnologiyalar esa, ularga bilimlarni mustaqil ravishda o'rghanib tahlil qilishga va xulosa berishga o'rgatadi. Har bir pedagog innovatsion faoliyatga ega bo'lmog'i va ko'p izlanishlar mobaynida uning xususiy tajribasiga aylanishi kerak. Biz ko'p hollarda novatsiya va innovatsiya tushunchalarini adashtiramiz. Agar ma'lum faoliyat qisqa muddatli bo'lib, sohaning ayrim elementlarini o'zgartirishga xizmat qilsa-novatsiya, aksincha faoliyat umumiyligini konseptual yondashuv asosida borib, sohani tubdan o'zgartirsa, va uning rivojlanishiga zamin yaratса bu-innovatsiya hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimi innovatsion texnologiyalarga juda muhtoj. Ta'lim tizimida o'quv-biluv samaradorligini oshirish uchun ulardan to'g'ri foydalanish, innovatsion va novatsion texnologiyalarning maqsad, vazifasini anglay olish va ta'lim-tarbiyaga qo'llashning tashkiliy asoslarini mohiyatan chuqur anglagan holda faoliyat ko'rsatish lozim. Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi shundan iboratki, yangiliklarga intiluvchanlik va uni yaratish hissini uyg'otish, interfaol metodlardan foydalanib dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini shakllantirish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlanirish va kreativ fikrashga o'rgatishdan iboratdir. Turli pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal etishi va faoliyati mobaynida yangi g'oyalarni izlashi, muhim va murakkab masalalarga

yangicha yondashuv bilan kirishishi ham bevosita innovatsion faoliyatni to‘g‘ri anglay olish bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.Jahon tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga birgalikda erishishlari uchun to‘g‘ri va aniq tanlangan innovatsion texnologiyaga bog‘liq. Zero O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ustuvor vazifa qilib belgilangan.” An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi:o‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa- bus ardor,hakam,yagona tashabbuskor shaxs.”[1]Dars mashg‘ulotida turli interfaol metodlardan unumli foydalanish yuqoridagi fikr xato ekanligini ko‘rsatadi. Interfaol metodlar ta’lim jarayonida obyekt va subyekt orasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirish,ularning erkin va mustaqil fikrlashini ta’minalash, fikrlarini ilmiy asoslash,tahlil qilish,to‘g‘ri xulosa chiqarish, sog‘lom raqobat, debatlar, bahs olib boorish ko‘nikmalarini shakllanib boradi va shu bilan birgalikda talaba ta’lim jarayonining eng muhim ishtirokchisiga aylanishini ta’minalaydi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash dars mashg‘ulotining yanada qiziqarli,samarali bo‘lishiga olib keladi. Interfaol metodlar talabani yangicha fikrlashga undaydi, berilgan minimal imkoniyatdan maksimal bilim olishga zamin yaratadi. Quyida eng yangi interfaol metodlar bilan yaqindan tanishib chiqamiz va ularning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganamiz.

**Aqliy hujum**-Ushbu metod ma’lum bir mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib mazkur muammo xususida talabalarni erkin va mustaqil fikrlashini ta’minlovchi fikr va tasavvurlaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi.Ushbu metodning qoidalarini to‘g‘ri qo‘llaganda natijaga erishish mumkin; talabalarning mavzu doirasidagi harqanday fikr va g‘oyalarti qabul qilinishi kerak,ularga yangicha yondashuv bilan mantiqiy fikrlashga erishish,o‘qituvchi tomonidan mulohazalar orasidan eng maqbulini tanlab olishi.Aqliy hujum metodini qo‘llashdan asosiy maqsad;ta’lim

oluvchilarni berilgan muammo xususida aniq,kreativ,chuqur fikr yuritishga undash va faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish.

**Klaster metodi**-Ushbu metod aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanib,ta’lim oluvchilarga ma’lum mavzu xususida erkin va ochiq fikrlarni to‘siqsiz bayon etish uchun mo‘ljallangan.Klaster metodini guruh asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qo‘llash yanada samara Beradi.

**Idrok xarita-** “Konseptual xarita”, “Intellekt xarita”,”Kartografiya konsepsiysi”nomination bilan ham ataladigan metod turi bo‘lib asosan o‘quvchilarining tasavvur qilish va fikrlarini tizimlashtirish va mavzuning asosiy tushunchalarini izohlashga yordam beradi.Darsning konspektini yozishdan xalos etadi.

**Assessment texnologiyasi**-inglizcha”baholash”degan ma’noni bildiruvchi ushbu metod hozirgi kunda turli davlatlar ta’lim jarayonida ko‘p qo‘llanayotganligi bilan ahamiyatlidir.Talabalarning BKM darajasini optimal belgilash,rivojlantirish usullarini aniqlash,va bunga xizmat qiladigan istiqbol rejani aniqlash funksiyalarini bajaradi.

Qisqa qilib aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan ta’lim texnologiyalari bugungi zamon bilan hamnafas bo‘lgan talabalarga ta’lim-tarbiya berishda juda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim oluvchilarni har tomonlama mukammal tarzda bilim berishga, assotsiative fikrlashda, xotirasini mustahkamlashda, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishda ahamiyatlidir. Ayniqsa bugungi aktual mavzuga aylangan kreativlikni rivojlantirishda ham an’anaviy metodlarga nisbatan ko‘proq samara beradi. Faqat o‘qituvchi fan, mavzu, o‘quvchilar jamoasi, auditoriya muhitiga qarab yuqoridagilardan unumli foydalanishi mumkin.Ayniqsa oliy ta’lim muassasalarining musiqiy madaniyat,Tasviriy san’at, arxitektura, dizayn, xullas ijodiy fikrlash talab etiluvchi yo‘nalishdagi talabalarga dars mashg‘ulotida qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Usmoboyeva M.To‘rayeva A.Kreativ pedagogika.-Toshkent:TDPU,2016.-B.6.
- 2.F.M.Zakirova, Sh.X.Pozilova. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi. Monografiya.T/20018
- 3.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.